E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

KITOB TUMANI QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARI TAQSIMOTI

Ataullayev Jafar
“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o’qituvchisi
Imomov Nusrat
“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Kitob tumani - Qashqadaryo viloyatidagi tuman. Viloyatning shimoli-sharqida. 1926-yil sentabrda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Shahrisabz tumani bilan birlashtirilgan. 1968-yil 25-dekabrda qayta tuzildi. Viloyatning Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston bilan chegaradosh. Maydoni 1,75 ming km2. Aholisi 264,6 ming kishi (2020-yil 1-yanvar holatiga). Kitob tumanida 1 shahar (Kitob) va 26 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Markazi — Kitob shahri. Tuman hududidan Katta O‘zbekiston trakti o‘tgan. Taxtaqoracha dovoni (balandligi 1788 m) esa respublika janubini shimoliy viloyatlar bilan bog‘laydi.

Tabiati. Hududining katta qismini shimoliy va sharqiy chegaralar bo‘ylab cho‘zilgan baland Hisor va Zarafshon tog‘lari (4000 m) yegallagan. Baland tog‘lar tuman hududini sovuq havo oqimidan to‘sib turgani uchun tuman iqlimi viloyatda yeng mo‘tadil. O‘rtacha temperatura yanvarda 0,8°, iyulniki 28°. Yiliga o‘rtacha 545 mm yog‘in tushadi. Yog‘inning 85% bahor va qish fasllariga to‘g‘ri keladi. Tuman hududidan Qashqadaryoning irmoqlari — Kichikjar, Oqsuv, Jinnidaryo, Oqsaryo oqib o‘tadi. Tuprog‘i Shahrisabz–Kitob botig‘ida tipik bo‘z, daryo bo‘yida alluvial bo‘z, tog‘larda qo‘ng‘ir tuproq. Efemer o‘simliklar hamma joyda uchraydi. Suv bo‘ylarida qamish, yulg‘un o‘sadi. Tog‘ yon bag‘irlarida archa, bodom, do‘lana, olma, tol, yong‘oq, pista, zarang daraxtlari va xilma-xil butalar o‘rmon hosil qilgan. Tog‘ yon bag‘irlari chorva mollari uchun yozgi yaylov.

Aholisi, asosan, o‘zbeklar; tojik, rus, tatar va boshqa ham yashaydi. Axrlining o‘rtacha zichligi 1 km2 ga 151 kishi.

Xo‘jaligi. Kitob tumani qadimdan muhim savdo yo‘llarining ustida joylashganligi va Samarqand, Buxoro hamda Shahrisabzga yaqinligi uchun dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlangan hududlaridan biri bo‘lgan. Tuman xo‘jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlar 18,7 ming ga, shu jumladan, 3,3 ming ga yerga paxta, 10,1 ming ga yerga don ekinlari, qolgan yerlarga sabzavot-poliz, kartoshka, yemxashak yekinlari yekiladi. 5,0 ming ga yaqin maydon bog‘ va tokzor. Quyidagi 2.1-rasmda Kitob tumanining sxematik kartasi va tumanning viloyatda joylashuvini ko‘rishimiz mumkin [3.4].

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE



2.1-rasm. Kitob tumani sxematik kartasi

Kitob tumani qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi bo‘yicha Qashqadaryo viloyatida 5-o‘rinni, jami viloyat ulushining 8.6%ni tashkil qilmoqda. 2019-yil yakunlari bo‘yicha, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hajmi 1750,5 mlrd.so‘mni tashkil qilmoqda.Tumanda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi fermer xo‘jaliklari-24.7%, dehqon xo‘jaliklari-72.4%, qishloq xo‘jaligi faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar-2.9%ni tashkil qildi [3.3].

Quyidagi 2.1-jadvalda Kitob tumani qishloq xo‘jaligi yerlarining so‘ngi yillardagi o‘zgarib borish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin.

Kitob tumani qishloq xo‘jalik yer turlarining 2015-2020-yilllar mobaynida o‘zgarish tendensiyasi (.ga)

Йил	Умумий майдон	Экин ерлар			Кўп йиллик дарахтзорлар					Бўз ерлар	Яйловлар	Қишлоқ хўжалик ер турларининг жами
		жами	Шундан		жами	шундан						
			сувли	лалми		боғлар	узумзорлар	тутзорлар	мевали кўчатзор ва бошқа кўп йиллик дарахтзор			
2015	174198	20805	8692	12113	8336	2883	4637	815	1	1198	71943	102282
2016	174269	20720	8607	12113	8413	2921	4676	815	1	1198	71942	102273
2017	174269	20684	8615	12069	8404	2915	4673	815	1	1198	71936	102222
2018	174269	20410	8381	12029	8652	3119	4717	815	1	1198	71003	101263
2019	174269	20290	8313	11977	8758	3151	4792	814	1	1198	71003	101249
2020	174269	20260	8313	11947	8758	3151	4792	814	1	1198	70931	101147

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Ushbu 2.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘p yillik daraxtzorlar egallagan maydon, 2015-yilda – 8336ga ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich – 8758ga ni tashkil qilmoqda. Tumanning asosiy qismi yaylovlardan iborat, 2020-yil 1-yanvar holatiga – 70931ga. Ko‘p yillik daraxtzorlar egallagan maydon tarkibida 2020-yil 1-yanvar holatiga, 3151ga – bog‘lar, 4792ga – uzumzorlar, 814ga- tutzorlar va 1ga yer maydonini mevali ko‘chatzor va boshqa ko‘p yillik daraxtzorlar egallagan [3.2].

xiliga ajratilishi mumkin emas, chunki ulardan ushbu maqsadlarda foydalanish amaldagi qonun hujjatlariga zid keladi va nolegitim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi - T.: O‘zbekiston, 1998
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yilning 9 yanvar «Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 14-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi qarori “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni.
5. S.Avezbayev,S.N.Volkov Yer tuzishni loyihalash O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashryoti Toshkent-2006.
6.Mirzaliev T., Safarov E., Egamberdiev A, Qoraboev J. Kartashunoslik.

Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2012.

7.Safarov E., Musaev I., Abdurahmanov X. Geografik axborot tizimlari va

texnologiyalari. –Toshkent, 2008.

8.O’zbekiston Respublikasining yer resurslari holati to’g’risida Milliy hisoboti.,

T., Davlat soliq qo’mitasi xuzuridagi Kadastr agentligi, 2021y.

WORDLY KNOWLEDGE